

Turk qonunchilik tilida leksik vositalarning tanlanishi masalasi

Tagayeva Eldona

ToshDSHI magistranti

Eldona.Tagayeva@mail.ru

Rezume

Sud-huquqqa oid matnlarni tarjima qilishda soʻz qoʻllash va muqobillik masalalarini hal etish, yuridik terminlar tarjimasida ularga mos tarjima usullarini belgilash muhim masalalardan hisoblanadi. Turk va oʻzbek tillaridagi ayrim yuridik hujjatlarni oʻgirish masalalari, bazi yuridik terminlar mazmunini tarjimada saqlash shular jumlasidandir.

Резюме

При переводе текстов, относящихся к судебно-правовым документам, важное значение имеют употребление слов, решение вопросов эквивалентности и обозначение переводов юридических терминов. Вопрос перевода некоторых юридических документов в турецком и узбекском языках и сохранение значения оригинального текста в переводе относятся к вышеуказанным задачам.

Resume

In this thesis the problems of translation of some legal documents from Turkic into Uzbek language and precisely to preservation of legal meaning in translation Turkish into Uzbek language. Influence of the features of the Law texts on translation, definition of relevant methods of legal terms translation during the translation of judicial and legal translation has been determined as the main point of the thesis.

Kalit soʻzlar

Qonun matnlari, leksik vositalar, yuridik terminlar, tarjima, tarjima muammolari.

Ключевые слова

Судебно-правовым документы, лексические средство, юридические термины, перевод, проблемы перевода.

Keywords

Legal and court documents, lexical resource, law terms, translate, problem of translation.

Huquq haqidagi taʼlimotlarni paydo boʻlishi bilan birga qonun tili haqidagi fikrlar ham yuzaga kelgan. Antik davridayoq ayrim olimlar yuridik til haqida maʼlumot berganlar. Sharqning buyuk mutafakkiri Abu Nasr Farobiyning “Talxisu

navomisi Aflotun” (Aflotun qonunlari mohiyati) nomli asarida qonunlarning mazmun va mohiyati to‘g‘risida Platon tomonidan yozilgan asarga batafsil sharx beriladi. Bu asarda ta’kidlanishicha, Platon qonunlarining tili masalasiga ham alohida e’tibor qaratib, bu haqda shunday yozadi: “Sohibi qonunning har bir guruh odamlarga murojaati tushunarli bo‘lishi lozim. Buning uchun qonun chiqaruvchi odamlarning idrok etish imkoniyatlarini hisobga olish kerak, toki odamlar uni tushunsinlar. Chunki odamlarga ularni tushunish va amalda qo‘llash qiyin bo‘lishi mumkin. Tushunmovchilik bunday sohibi qonundan voz kechishga turtki va ag‘darib tashlashga sabab bo‘lishi mumkin”.¹ SHuningdek, Aristotel ham o‘z asarlarida yuridik til, uning o‘ziga xos tabiati haqida alohida to‘xtalib o‘tgan.²

Eramizning I-III asrlarida esa qonun tilining yuksak namunasini Rim xususiy huquqida ko‘rish mumkin. Bu davrda Rim huquqshunoslari huquqiy bilimlarini rivojlantirish bilan birga qonun tili, uning o‘ziga xos jihatlari to‘g‘risidagi ham mukammal ma’lumotga ega bo‘lganlar.³ Ular qonunlarni aniq va qisqa qonun tuzish talablariga to‘la rioya qilgan holda tuzganlar, huquqiy me’yorlarni ravshan, tiniq, tushunarli bo‘lishiga asosiy e’tiborni qaratganlar. Shuning uchun ham bu hususiyatlar Rim qonunchiligining ustun tomoni hisoblanadi.⁴ Bu qonunlar hali hanuzgacha o‘zining puxta va pishiqligi bilan butun insoniyatni lol qoldirib, qonunchilikning eng yuksak namunasi bo‘lib hizmat qilmoqda.

Turk tilidagi bu soha uzoq o‘tmishga borib taqalsada yozma nutqdagi bunday matnlarning tahlil qilinishi ularning mukammalroq o‘rganishda taraqqiyotning bir ko‘rinishidir. Bunga ko‘ra *Anlasma* (shartnoma) *vasiyet* (vasiyatnoma) kabi hujjatlar qoliplashgan turk yozma matnlar tilini yuzaga keltiradi. *Resmi yazilar* rasmiy hujjatlar ichida esa *yasalar* (qonunlar), *hukukchularin dilekçeleri* - huquq vakillarining da’vo arizalari, *yüksek mahkeme kararları* - oliy sud qarorlari tarzda o‘rin olgan. Sud bayonnomalarida uchraydigan qonun matnlarining o‘zgarmas shakllariga *evlilik töreni* (to‘y marosimlar) va *tanık yeminleri* (guvohlik qasamlari)ni kabilarni misol qilib keltirishimiz mumkin.

Masalan: *Tüm bildiklerimi dosdoğru söyleyeceğime yemin ederim!*

(Barcha bilganlarimni ro‘y – rost aytishga qasam ichaman)

Bu guruh sudyalarning guvohlarni so‘roq qilish jarayonini o‘z ichiga oladi.

E’tibor qaratishimiz lozim bo‘lgan yana bir jihat, *kundalik huquqqa oid iboralarining* ko‘pincha rasmiy bo‘lmagan bir tuzulishga ega ekanligidir. Ular sudyalar advokatlarning konfrensiyalari yoki huquqshunoslarning o‘zaro huquqqa aloqador bo‘lgan muloqotlariga xizmat qiladi. Turk qonun tili va uni tadqiq qilishda *Türk Medeni Kanunu* (Inson huquqlari to‘g‘risidagi qonun), *Türk Ceca Kanunu* (jinoyat kodeksi), *Türk Ticaret kanunu* (Savdo sotiq to‘grisidagi qonun), hamda *Türkiye Cumhuriyeti Anayasası* (Turkiya respublikasi Konstitutsiyasiga)ga murojaat qilamiz. Bunda ko‘zlangan maqsad esa Turk qonunchilik matnlaridan

¹ Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. –T: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi,1993.B.24.

² Античные теории языка и стиля. –М.: 1936. –С. 188.

³ Люблинский П.И. Техника, толкование и казуистика уголовного кодекса. –П.: 1917.-С.9.

⁴ Римское частное право. –М.: 1949.; всеобщая история государство и права. I ч. Древний мир. Вып. II. Древний Рим. –М.: 1949.

misollar keltirgan holda ularni tahlil qilish va ularda leksik vositalarning tanlanishi masalasini o'rganib chiqishdan iboratdir.

Turk qonun tili boshqa mamlakatlarning qonun tillarida ham kuzatilgani kabi o'ziga hos bir lug'at boyligini tashkil qiladi. G'arb olimlarining fikriga ko'ra eski so'zlarning qo'llanilishi, ommaga tushunarli bo'lgan, sintaktik bo'yoqqa ega bo'lmagan so'zlarning huquqiy termin sifatida qonunchilik matnlarida kelishi, so'z birikmalaridan foydalanish, sinonimlikning yuzaga kelishi hamda vaziyat taqazo qilganda o'zlashma so'zlardan foydalanish kabi qonunlar yaratilishiga ta'sir qiluvchi bir qancha bosqichlarni ko'rishimiz mumkin. Shu o'rinda turk qonunchilik tilining leksik qatlamida **“o'zlashma so'zlar”** ning ishlatilishi uning lug'aviy satxida yaqqol ko'zga tashlanadigan xususiyatlardan biri ekanligini ta'kidlab o'tish o'rinlidir. Bunda ayniqsa, arabcha va forscha so'zlarning ko'p uchrashini kuzatishimiz mumkin.

Masalan: 1. Kimse hürriyetini *ferağ* edemediği gibi kanuna veya *adabı umumiye*ye *mugayir* surette *takyid* dahi edemez.⁵ (MK.23.) *ferağ* (o'z erkinligini kimgadir berish), *adabı umumiye*ye (umumiy ahloq qoidalari), *mugayir* (zid tarzda), *takyid dahi etmek* (biror bir harakatni cheklash): arab tilidan o'zlashgan so'zlar.

Masalan: 2. Bir *ikametgahın* değiştirilmesi yenisinin *ittihazına mütevakkiştır*.⁶ (MK.23) *ikametgah* so'zida *ikamet* arabcha so'z, *gah*-forscha qo'shimcha. *İttihaz, mütevakkiştır. İkametgah* (boshpana, turar joy), *ittihaz* (foydalanish, olish, ko'chish), *mütevakkiş* (tegishli aloqador bog'liq) bu so'zlarning barchasi arabchadan o'zlashgan so'zlardir.

Qonun moddalarida arabcha forscha so'zlar ishlatilishi bilan bir qatorda arabcha-turkcha yoki forscha-turkcha birikmalarning ham ishlatilishiga duch kelamiz. Bularga *ferağ (Ar) etmek (Tr)*⁷ (o'z erkinligini kimgadir berish), *Takyid (Ar) etmek (Tr)*⁸ (cheklash, taqiqlash) (MK.23), *zail (Ar) olmak (Tr)*⁹ (yo'q bo'lish) (MK.18), kabilarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Yuqoridagi misollarda ko'rilganidek Usmonli davri tili deya nom berishimiz mumkin bo'lgan turk tili, arabcha va forscha o'zlashma so'zlarning ko'pchiligini o'zida mujassam qilgan holda qonun moddalarining murakkablashtirishga hamda huquq mutaxassisi bo'lmagan oddiy fuqorolarning bu tilni tushunish uchun lug'atlardan foydalanishiga sabab bo'ladi.

Qonun matnlarining leksik qatlamida kuzatiladigan yana bir o'ziga xos xususiyat kundalik muloqotda ma'lum bir ma'no tashigan va keng miqyosda qo'llaniladigan bazi so'zlarning huquq sohasida boshqa ma'no kasb etishidir.

Boshqacha qilib aytganda, bir so'zning qonun tilidagi ma'nosi, xalq tilidagi doim ishlatiladigan so'zlarning ma'nosiga teng kelmaslik holatlari kuzatiladi. Bunga quyidagi so'zlar misol bo'la oladi.

Masalan; KAZA - Keng qo'llaniladigan ma'nosi: jon yoki mol yo'qotilishiga yoki ularga zarar yetishiga sabab bo'luvchi *nohush hodisa*¹⁰ (Türkçe sözlük 1992). Huquq tilidagi ma'nosi: *hukm, karar*¹¹ (Taylan 1982:97).

⁵ Türk medeni kanunu (İnson huquqlari to'g'risidagi qonun) 23-modda

⁶ Mülkiyet kanunu (mulkchilik to'g'risidagi qonun) 23-modda

⁷ Medeni kanun 23.madde (İnson huquqlari to'g'risidagi qonun 23-modda)

⁸ Yuqoridagi qonun va modda

⁹ Yuqoridagi qonun 18-modda

¹⁰ Türkçe sözlük. Ankara. 1992

¹¹ Türkçe sözlük. Taylan. 1982

KABAHAT - Keng qo'llaniladigan ma'nosi: *nomoqul harakat, qo'pollik*. (Türkçe sözlük 1992), Huquq tilidagi ma'nosi: *yengil jazo turi belgilanadigan jinoyatlar* (Taylan 1982: 95). TASARRUF - Keng qo'llaniladigan ma'nosi: *pul yoki biror bir mulkni tejamkorlik bilan sarflash* (Türkçe sözlük 1992). Huquq tilidagi ma'nosi: *biror huquqdan foydalanish, rasmiylashtirish* (Taylan 1982: 171). SABIT - Keng qo'llaniladigan ma'nosi: *bir joyda turuvchi sobit* (Türkçe sözlük 1992). Huquq tilidagi ma'nosi: *isbot qilingan* (Taylan 1982:171).

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, turk qonun tilidagi o'zlashma so'zlarning o'zni faqatgina lug'aviy qatlamda emas balki sintaktik qatlamda ham o'ziga xosliklarni namoyon qilmoqda. Bulardan eng asosiysi forschadan o'zlashgan egalik shaklidagi so'zlar bo'lib, ulardan Usmonli imperiyasi davrida keng foydalanilgan. Bularga misol tarzida forscha o'zlashma so'zlarning turkchallashtirilgan shaklini quyidagicha berishimiz mumkin.

- ***Memaliki ecnebiye (MK.20) = Yabancı ülkeler***
Chet el mamlakatlari
- ***Adabı umumiye (MK.23) = Genel ahlak***
Umumiy ahloq qoidalari
- ***Mahkemeyi asliye (MK.12) = Asliye mahkemesi***
Odil sud
- ***Hidemati amme (CK.20) = Kamu hizmetleri***
Komunal xizmatlar
- ***Kazai karar (MK.1) = Yargı kararı***
Sud qarori
- ***Hissei temettü (MK.334) = Kazanç payı***
Daromad ulushi
- ***Devairi intihabiye (CK.20) = Seçim daireler***
Saylov uchastkalari

Yuqorida ko'rilganidek, fors tilidan olingan bu egalik birliklari qonun moddalarining tushunarli bo'lishini qiyinlashtirmoqda va ular turk tiliga o'girilganda esa, ham so'z qurilishini hamda ularning orasidagi bog'lanish turini ham o'zgarishiga sabab bo'lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbek tili stilistikasi masalalari. Ilmiy ishlar to'p.ToshDU. Toshkent: 1982.
2. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. –T: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi, 1993.
3. A.Saidov, L.Saidova, Sh.Ko'chimov, M.Qosimovalarning “Qonun va til” Toshkent, 1997.
4. Türkiye Cumhuriyeti Anayasası. Ankara, 1982.
5. Taylan, Erbay. 1992. Yasa sözlüğü. İstanbul: Sebat Matbaası.
6. Türkçe sözlük, 1,2. 1992. TDK Yayınları. İstanbul: Milliyet tesisleri.

Qonunlar

7. Türkiye cumhuriyeti Anayasası. 1994. Ankara: Seçkin Yayınevi.
8. Türk Ceza Kanunu. 1998. Ankara: Seçkin Yayınevi.

9. Hukuk Usulü Muhakemeleri Kanunu. 1973. Ankara: Ayyıldız Matbaası.
10. Türk medeni kanunu. 1997. Ankara: Seçkin Yayınevi
11. Türk Ticaret kanunu. 1998. Ankara: Seçkin Yayınevi.

Qisqartmalar

12. Türkiye Cumhuriyeti anayasası – T.C An.
13. Türk Ceza Kanunu – CK.
14. Hukuk Usulü muhakemeleri Kanunu – HUMK.
15. Türk Medeni Kanunu – MK.
16. Türk Ticaret Kanunu – TK.
17. Arapça – Ar.
18. Farsça – Far.
19. Türkçe – türk.